

“SAB’AI SAYYOR” DOSTONIDAGI SHOH BAHROM OBRAZINING GENEZI VA O’ZARO QIYOSIY TADQIQI MASALASIGA DOIR MULOHAZALAR

Pirmamatov Muslim Abdulla o‘g‘li

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi II kurs magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada “Sab’ai sayyor” dostonidagi shoh Bahrom obrazi, u haqidagi dostonlarning yaratilish genezi, ushbu obrazning dostonlar asosida qiyosiy tadqiq etilishi, tarixiy hukmdor va badiiy obraz sifatida namoyon bo‘lishi haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: “Sab’ai sayyor”, Alisher Navoiy, shoh Bahrom, Dilorom, genez, Varaxran V, xamsachilik, Go‘r, kanizak, Firdavsiy, Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, Ashraf Marog‘iy.

Shoh Bahrom haqdagi ilk yozma manbalarni eron shohlari tarixidan so‘zlovchi “Tarixi rusul va muluk”, “Xudoynamak” kabi tarixiy kitoblarda uchratish mumkin. 420-438-yillarda hukmronlik qilgan ushbu shaxs qariyb 18 yillik hukmronligi davrida boshqa hukmdorlardan deyarli farq qilmaydigan siyosat yuritdi, ammo u tarixiy asarlarda o‘z otasiga qarshi turganligi qayd etilganligi bilan ajralib turadi. Shoh Bahromning ovga ishqibozligi, mayparastligi hamda fojiali o‘limi tarixiy kitoblardan ham o‘rin olgan. Ammo bu qo‘llanmalarda real tarixiy fakt to‘la namoyon bo‘lmagan. Badiiy adabiyotda esa Bahrom Go‘r obrazi ilk bor Abulqosim Firdavsiyning “Shohnoma” asarida tilga olinadi. She’riy usulda yaratilgan eron hukumdlorlari tarixidan so‘zlovchi ushbu asar faqatgina tarixiy qo‘llanma emas. Yozuvchi o‘z oldiga buyuk badiiy asar yaratishni maqsad qilib olgan edi va shu bois ijodkor tarixiy voqelikka badiiy to‘qimalar, xalq og‘zaki ijodi namunalari, miflar, rivoyatlar, o‘z xayoloti mahsullarini ham kiritib borgan. Bu o‘rinda u tarixiy hukmdorlar obraziga ma’lum detallar qo‘sadi. Xususan, Bahrom Go‘r obrazi ham bundan mustasno emas. Asarda Bahrom Yazdigirdning o‘g‘li Varaxran sifatidagina emas, balki adolatli podsho sifatida gavdalanadi. Yozuvchi o‘z idealidagi hukmdor sifatida Bahromni yaratgan bo‘lishi ehtimoli bor. Chunonchi, Bahrom Go‘r timsolida xalqparvarlik, adolatparvarlik, qahramonlik kabi xislatlarni mujassamlashtirganki, ijodkor asil hukmdor o‘zida mujassam etishi lozim bo‘lgan barcha sifatlarni ushbu asarga kiritadi. Bundan tashqari Eron va unga qo‘shti hududlar mifologiyasida mavjud bo‘lgan chaqmoq ilohi xususiyatlari ham aynan Bahrom obrazida yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Xususan, Bahrom uddaburon lashkarboshi, oliy nasabli podshoh, yengilmas quvvatga ega pahlavon sifatida gavdalanadi va bu hatto uning Go‘r deb berilgan laqabida ham o‘z ifodasini topgan. Olim S.Hasanov Bahrom obrazi genezini tadqiq etar ekan u haqida quydagi ma’lumotlarni keltiradi: Navoiyning “Sab’ai sayyor”ini rus tiliga tarjima qilgan olim S. Lipkin asar so‘zboshisida doston ildizlari hind-eron xalqlarining chuqur tarixiga borib taqalishini, asardagi Bahrom obrazi hind-eron xalqlari mifologiyasida katta o‘rin tutuvchi iloh hisoblanmish Veretragn, ya’ni chaqmoq va momaqaldiroq xudosi, deya ta’kidlaydi. Bundan tashqari Sharq mamlakatlarida Mars (Mirrix) yulduzi ham aynan Bahrom nomi bilan atalib, u urush, jang-jadal homiysi sifatida e’tirof etiladi. Bu qahramon Turkman xalq eposlarida Shobehram, armanlarda Vahagn, gruzin xalq poemalarida Vaxtang Go‘rgasol, rus yodnomalarida Georgiy Pobedonosets deb yuritiladi¹. Bahrom obrazi hatto rus adabiyotlarida ham uchrashi g‘ayritabiiydek tuyilishi mumkin, ammo yuqorida nomi qayd etilgan qahramon ko‘plab shaxsiy sifatlari bilan biz tahlilga tortayotgan shoh Bahromga o‘xshab ketadi. Olim Ferdinand Yusti Bahrom nomi kelib chiqishini juda qadim tarixga bog‘laydi. U bu nomni juda uzoq vaqtidan beri toat-ibodat bilan shug‘ullanib kelayotgan momaqaldiroq va chaqmoq xudosi Indra Veritragn bilan bog‘lab, uning sanskrit adabiyotida uchrashini qayd etadi². Bundan tashqari adabiyotda Yazdigirdning o‘g‘li Bahrom V gacha Bahrom nomi bian o‘n uch nafar hukmdor o‘tganligi, ularning birinchisi Bahrom-g‘olib, ikkinchisi Bahrom-mergan, boshqa biri Bahrom-shernajot, ayrimi Bahrom-zolim kabi laqablar bilan tanilganligi qayd etiladi. Keyinchalik, biz bilgan Bahrom V tarix sahnasiga chiqib keladi. Bundan tashqari sosoniylar saroyidagi hukmron doiralar, zardushtiyarning ruhoniylari Bahromni juda hurmat qilgan holda uni ideallashtirishga harakat qilganlar. Buning boisi Bahromning zardushtiyarning manfaatlariga har tomondan madad berib, nasroniyarlari tazyiq ostiga olganligi bilan izohlanadi³. Xususan, u taxtga chiqishining ilk kunlaridanoq zardushtiylarga keng imkoniyatlar ochib berib ular bilan yaqinlashgan. Zardushtiylar esa o‘z navbatida Bahromni ideallashtirib, uni iloh darajasiga ko‘tarishdan manfaatdor ham edilar. Shu taxlit Bahrom V tarixiy shaxs bo‘lish bilan bir qatorda iloh Veretragnga ham aylana bordi. Uning shaxsiy hayotida chindan ham otasi Yazdigird zolim podshoh bo‘lgani, uni dushmanlari hujumidan asrash uchun Yamanga Nu’mon huzuriga yuborilgani, Yaman ob-havosi salbiy ta’sir ko‘rsatmasligi uchun bahavo joyda Havarnaq qasri qurilganligi, Yazdigirdning o‘limidan so‘ng Xusravshohning taxtga egalik qilmoqchi bo‘lganligi-yu Bahrom Nu’mon bilan katta qo‘sish to‘plab Eronga bostirib kelishi, so‘ng ikki sher orasidan tojni olib xalq oldidaadolatli siyosat yuritishga va’da bergach

¹ Ҳасанов С. Навоийнинг етти тухфаси. – Тош.: Фафур Ғулом. 1991. Б – 118-119.

² Ўша асар, 119-бет.

³ Ўша асар, 119-бет.

taxtga chiqishi kabi voqealar ro'y berganligini biz "Xudoynomak", "Tarixi muluki ajam", "Tarixi tabariy" kabi asarlardan bilib olishimiz mumkin. Bahrom haqida Alisher Navoiy ham o'zining "Tarixi muluki ajam" asarida to'xtalib: "Bahrom binni Yazdijurd chun otasidin so'ngra saltanat taxtiga o'lturdi, otasi buzg'onlarni tuzdi va aning zulmigaadolat ko'rguzdi. Va ani Bahrom Go'r dedilarki, go'rni shersayd qilg'onda aning o'qi egnidan o'tib yerga tegdi. Ba'zi depturlarkim, go'r ovig'a ko'p moyil erdi".

Bahrom haqida keng tadqiqotlar olib borayotgan yana bir olim M.Muhiddinov akademik I. Orbelining fikriga quyidagicha to'xtaladi, Bahromning "Go'r" laqabi qadimgi Vavilon, Eron va Kavkaz xalqlari mifologiyasida mavjud bo'lgan "Gurg" (bo'ri) laqabidan kelib chiqqan. Bu afsonada ko'rsatilishicha, Bahrom tanasi odam, boshi bo'ri (gurg) shaklida tasvirlangan va u o'zining shijoati, bahodirligi bilan yovuz kuchlarni yengib borgan. Hozir ham kurd xalq afsonalarida Bahrom "Gurg" laqabi bilan tilga olinadi. Olim "Go'r" so'zi "Gurg" so'zining tarixiy o'zgarishidan paydo bo'lgan, deb ta'kidlaydi¹. Biroq Firdavsiy "Shohnoma"sida tasvirlanishicha, Bahrom qulon (go'r) oviga ishqiboz bo'lganligi sababli "Go'r" laqabini olgan. Firdavsiy asarda Bahromning ijobiy tomonlari bilan bir qatorda salbiy xususiyatlarini ham ko'rsatib o'tgan. Ovga o'chlik, maishatparastlik, qahrining cheksizligi kabilar shular jumlasidandir. "Shohnoma"da Bahromning tug'ilishidan tortib to o'limigacha bo'lgan voqealar badiiy hikoya qilib beriladi. Bahromning tarbiyalanishi, otasi o'limidan so'ng kurash olib borib taxtga egalik qilishi, hukmdor bo'lgach tez-tez ovga chiqib biror qishloqda mehmon bo'lib qolishi, insof-adolat, baxillik va saxiylik, to'g'ri-no'to'g'ri siyosatlar haqida eshitishi yoki o'zi bularning guvohi bo'lishi kabilar tasvirlanar ekan, Bahromningadolatparvar hukmdor bo'lishi uchun ijodkor uni tayyorlab boradi. Asar rivoji davomida Bahrom Hind yurtiga qiyofasini o'zgartirib elchi niqobida boradi hamda shoh qizini nikohiga olib, Hindistonni o'z hukumronligi ostiga oladi. Chin xoqoni bilan kurashib uni mag'lub etadi. Doston yakunida esa Bahrom o'z qasrida vafot etadi. Ushbu doston va dostonning atigi bir faslini tashkil etuvchi shoh Bahrom tarixi hikoyati o'zidan keyin eron dostonchiligiga ulkan hissa qo'shdi. Ko'p ijodkorlar "Shohnoma"dan ta'sirlanib undagi voqealar silsilasiga ergashib yangidan yangi she'riy va nasriy asarlar yaratdilar. Xususan, Bahrom va uning o'z kanizagi ("Shohnoma"da Ozoda) bilan bo'lgan to'qnashuvi voqealar qalamga olingan asarlar vujudga keldi. "Shohnoma"da Bahrom kanizagi bilan go'r (kiyik) oviga chiqqanda Ozodaga kiyikni qanday otay, sen aytganingday ota olaman, deya maqtanadi va kanizagining istagiga binoan kamon o'qi bilan kiyiklarning erkagini urg'ochiga, urg'ochisini esa erkakka muguzini almashtirib, boshini oyog'iga chatib tashlaydi. Ammo shunday merganlik va

¹ Мухиддинов М. Кўнгил хайратлари.– Тош.: Тамаддун. 2021. Б – 234.

iqtidor uchun kanizagidan maqtov o‘rniga kiyiklarga berahmlik qilgani uchun ta’na-ma’lomatlar qilingan Bahrom g‘azab otiga minadi va kanizini tuyu oyoqlari ostiga tashlab yanchtirib yuboriladi. Umuman olganda, Firdavsiy bu o‘rinda kanizak Ozodaga sira ham achinmagan. Uni qiziqtirgan va diqqat markazida turgan obraz Bahrom edi. Sha’nining toptalishiga jim qarab tura olmagan hukmdor o‘z mahbubini ayab o‘tirmasligi va keyinchalik bu qilmishidan afsuslanmasligi, nafaqat achinmaslik, balki Ozodani butunlay yodidan chiqarib yuborishi Bahromda mujassamlashgan ijobiy va salbiy xislatlarning bo‘y ko‘rsatishida yordam bergen. Firdavsiy u, avvalo, g‘uruli shoh edi va shu bois uni o‘z darajasiga ko‘ra hurmatlamaganlarning holi shu taxlid yakun topishi kerak, deya hisoblaydi. Ammo xuddi ana shu lavhadan ta’sirlangan Nizomiy Ganjaviy voqeani qayta ishlaydi va mashhur “Haft paykar” dostonini yaratadi. Ammo Nizomiy Firdavsiydan farqli o‘larоq u Bahromni nafaqat shoh, balki oshiq ham qilib gavdalantirgan. “Shohnoma”da Bahrom va Ozoda sarguzashti kichik bir sahna sifatida e’tirof etilgan bo‘lsa, “Haft paykar”da u butumboshli asar yaralishiga sabab edi. Ganjaviyning asarida Ozoda Fitna, Amir Xusrav Dehlaviyning “Hasht behisht” va Amir Alisher Navoiyning “Sab’ai sayyor”ida Dilorom nomlari bilan ataladi. Nizomiy Firdavsiy ta’riflagan Bahromning hukmdorlik, mohir sarkardalik, jasurlik kabi asosan ijobiy xislatlarini olib o‘zidan yana ko‘plab jarayonlar qo‘shadi, badiiy to‘qimalar asosida bu gal ishq tarannum etilgan sevgi dostonini yaratadi. Firdavsiyning “Shohnoma”sidan farqli o‘larоq Nizomiyning “Yetti go‘zal”ida Bahrom asosiy qahramon rolini o‘ynaydi. Shoir Bahrom haqidagi afsonani mukammalroq bayon etishga harakat qiladi. Bahrom to‘g‘risidagi rivoyatlar “Shohnoma”da ko‘proq tarixiy ruhda bayon etilgan bo‘lsa, Nizomiy uni o‘z g‘oyaviy-badiiy didiga moslab qayta yaratadi.

Nizomiy Ganjaviyning “Haft paykar”i bir-biri bilan bog‘liq bo‘lmagan besh hikoyatdan iborat. Firdavsiydan farqli o‘larоq Nizomiy kanizak Fitnani o‘ldirmaydi, chunki u Bahromni shoh deya ta’riflash bilan birga oshiq ham qilishi kerak edi. Ganjaviy Bahrom va Fitna obrazlarini tasvirlash uchun ketma-ket kelgan ikki bobni ajratadi. Ular “Bahrom va uning kanizagi haqida doston” hamda “Bahromning ovdan qaytayotib sarkardaning oromgohida mehmon bo‘lishi” deya nomlangan. Voqealar rivojida “Shohnoma”da bo‘lgani kabi shoh Bahrom Go‘r kanizagi bilan ovga chiqadi va go‘rlarni shunchalar mohirlik bilan otadiki, o‘zi ham bunga hayron qoladi. U o‘q yordamida kiyikning oyog‘ini qulog‘iga bog‘lagan edi. Ammo kanizak buni maqtov-u hamd-sanolar bilan e’tirof etmay, shunchaki mashq natijasi, deb aytgani uchun g‘azab otiga minib uni o‘ldirmoqchi bo‘ladi. Ammo saroy a’yonlari Bahromdek ulug‘ hukmdorga bir ojiza ayolning qonini to‘kish yarashmaydigan ish, deb bunga qarshi chiqishgach Bahrom Fitnani o‘ldirishni sarkardasi Sarxangga topshiradi. Sarxang esa

uni o‘ldirmay hayotini saqlab qoladi va keyinchalik Fitnaning tashabbuskorligi natijasida Bahrom va Fitna qayta topishadilar.

Amir Xusrav Dehlaviy shoh Bahrom sarguzashti uchun atab yaratilgan asarini “Hasht behisht”, ya’ni “Sakkiz jannat” deya ataydi. Bu dostonda endi Firdavsiyning Ozoda, Ganjaviyning Fitnasi Diloromga aylanadi. Umuman olganda, Dehlaviyning maqsadi o‘zaro bog‘liq bo‘lgan yetti hikoya yaratish emas, balki bir-biridan mustaqil sakkizta qiziqarli turli hikoyalar ijod qilish edi. Shuning uchun Nizomiyning “Haft paykar”idan uning “Hasht behisht”ining eng birinchi farqi ham aynan nomlanishida kuzatiladi. Voqealar rivojini yoritar ekan, shoir Bahrom hayotidagi ko‘plab voqealarni qisqartiradi yoki butunlay olib tashlaydi. Xususan, Bahromning tarbiyalanishi, qahramonliklari, yetti qasrning qurilishi kabi o‘rinlar qisqartirilgan bo‘lsa, cho‘pon bilan uchrashuv, xoin vazirning jazolanishi kabi o‘rnlarni butunlay olib tashlaydi.

Endi Bahromning kanizak Dilorom bilan ovga chiqishi sahnasi gavdalantiriladi. Bu voqealari Firdavsiyning “Shohnoma”si va Ganjaviyning “Haft paykar”ida bo‘lgani kabi tasvirlanadi. Go‘rlarni ovlash bilan mashg‘ul bo‘lgan Bahrom Diloromga san’ati kuchini ko‘rsatib maqtanish uchun undan kiyiklarni qanday otishni so‘raydi. Diloromning istagiga ko‘ra, u ota kiyik shoxini ko‘chirib ona kiyikka o‘tkazishi (“Shohnoma”dagi kabi), ya’ni ota kiyikni ona kiyikka, ona kiyikni esa, ota kiyikka aylantirishi kerak edi. Shoh Bahrom buni muvafaqqiyatli uddalaydi va buning evaziga Diloromdan maqtov so‘zлari kutadi. Ammo Dilorom kutilganidek maqtov yog‘dirish o‘rniga hozirgi ov haqiqatda ajoyib bo‘lganligini, ammo bundan-da zo‘rrog‘ini ko‘z oldiga keltirish qiyin emasligini aytib qo‘ya qoladi. Bundan darg‘azab bo‘lgan Bahrom o‘zidan zo‘rroq boshqa birov bu olamda topilmasligini, agar topilguday bo‘lsa, Diloromga o‘shaning oldiga ketishini aytib, uni otdan uloqtirib yuboradi va bir o‘zini sahroda yolg‘iz tashlab ketadi. Bu o‘rinda insonning ruhiy holati real tarzda namoyon bo‘ladi. Voqealar rivojida Bahrom va kanizak qayta topishadilar.

Sharq xalqlari tarixida xamsa ijodkorlari ko‘pchilikni tashkil qiladi. Xususan, Kotib Turshiziyy, Abdurahmon Jomiy, Badriddin Hiloliy, Abdullo Xotifiy, Shahobiddin Jomiy, Ashraf Marog‘iylar shular jumlasidandir. Bularidan Kotib Turshiziyy hamda Abdurahmon Jomiyalar Nizomiy va Dehlaviy “Xamsa”sining uchta dostoniga javob-nazira bitgan bo‘lsalar, Ashraf Marog‘iy har beshala dostoniga javob yozgan ijodkor hisoblanadi. Ammo negadir Marog‘iyning ushbu “Xamsa”si el orasida yoyilib ketmadi. Ashraf Marog‘iy haqida Alisher Navoiy hazratlari bir qancha asarlarida eslab o‘tadilar. Masalan, “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida “yana chun “Sab’ai sayyor” rasadin zamirim bog‘labtur. Ashraf “Haft paykar”ining yetti hurvashini peshkashimg‘a yarog‘labtur”, – deya Marog‘iyning “Haft avrang” (“Yeti taxt”)iga yuksak baho beradi. Uning “Xamsa”si tarkibidagi to‘rtinchi dostoni “Haft avrang” deya nomlanadi va u Bahrom tarixini madh etuvchi asar hisoblanadi. Endi “Haft avrang”da Bahrom

oshiq hukmdor emas, balki adolatli podshoh sifatida gavdalanadi. Ashraf talqinida Bahrom haqidagi epizodlar qisqartirilgan. Shoir bunda asosiy e'tiborni hikoyatlarga qaratadi. "Yetti taxt" Bahromning tug'ilishi hamda tarbiyalanishi uchun Yamanga yuborilishidan boshlanadi. Bunda ham Nu'mon Bahrom uchun Havarnaqni qurdiradi. Keyingi bob Yazdegird vafoti, Bahromning sherlar orasidan tojni olib hukmdor bo'lishi tasvirlariga bag'ishlanadi. Bu dostonda ham Bahrom kiyiklarni ovlashga ishqibozligi sababidan "Go'r" laqabini olgan. Ashraf Bahromni oshiqt emas, adolatli shoh qiyofasida ko'rishni istaydi. Bahrom xalqni odillik bilan boshqaradi, keyinchalik yetti rangdagi yetti qasrni qurdirishga kirishadi va qurilishga Shod Shernajodni mas'ul qilib tayinlaydi. Qasrlar ikki yil-u uch oyda qurib bitkaziladi. Keyin yetti iqlim podsholariga ularning qizlariga uylanmoqchiligin bildirib xat yo'llaydi. Yetti iqlim hukmdorlari to'y-tomoshalar bilan qizlarini Bahromga nikohlab beradilar. Ashraf dostonda Firdavsiy, Nizomiy va Dehlaviydag'i kabi Bahromning kanizak bilan bo'lgan sarguzashtlarini kiritmaydi. Har tun saroylarda eshitadigan hikoyalari ham uni uxlatish yoki dardiga shifo bo'lish uchun emas, aksincha uni g'aflat uyqusidan olib qolish maqsadida aytilar edi. Har bir hikoya Bahromni odil podshoh bo'lishi uchun pand-nasihat, yo'l-yo'riq vazifasini o'tashi kerak edi. Ayni shu jihat bilan Marog'iyning "Haft avrang"i o'zidan oldin yaratilgan shu ruhdagi asarlardan keskin farq qiladi. Ammo dostondag'i hikoyalalar syujeti, badiiy to'qimalar, xalq eposlariga boyligi, jin-u sehrli kuchlar ishtiroki ko'pligi jihtidan avvalgi asarlarga yaqin turadi.

Alisher Navoiyning "Sab'ai sayyor" ("Yetti sayyora")si esa tugal kompozitsion yaxlitlikka egaligi bilan Nizomiy, Dehlaviy va Marog'iylarning dostonlaridan ajralib turadi. Navoiyning ushbu dostoni mazkur mavzuda o'zigacha bitilgan asarlar orasidagi birinchi turkiy doston edi. Asarning asosiy voqealari o'n ikkinchi bobdan boshlab hikoya qilinadi. Dostonda Bahrom va Dilorom haqidagi afsona yetti hikoyani o'zida qoliplovchi sevgi haqidagi asarning ajralmas qismiga aylantirilgan. Shu boisdan ham Navoiy an'anaviy kirish qismlarini tugatishi bilanoq ovga chiqqan Bahromning rassom Moniy bilan uchrashuvi va surat orqali Diloromni sevib qolishi tasvirini boshlab yuboradi. Bahrom Chinning bir yillik xirojini to'lash evaziga Diloromga erishadi. Shundan so'ng Bahrom qizga butunlay bog'lanib qoladi va davlat ishlarini unutib yuboradi. "Shohnoma"dagi kabi ovda Bahrom o'z mahoratini ko'rsatish uchun kiyikni qanday otishini so'raydi va Diloromning xohishiga ko'ra, kiyikning to'rt oyog'ini bir o'q bilan bog'lab, keyingisida kiyikni bo'g'izlaydi. Dilorom esa boshqa dostonlardagi kabi buni faqatgina mashqning natijasi deya bunga e'tibor bermaydi. G'azablangan shoh Bahrom mastlikda Diloromni oyoq-qo'lini bog'lab, sahroga tashlab kelishga buyruq beradi. Keyin esa mastlik tarqab o'ziga kelgach qilgan ishidan afsuslanadi, sahroga borib Diloromini izlaydi, ammo topa olmaydi.

Nizomiy va Dehlaviy dostonlarida Bahrom g‘amginligini biroz bo‘lsa-da tarqatish uchun musofir keltirishlarini va keltirilgan musofir biron bir qiziqarli voqeani aytib berib qissaxonlik qilishini buyuradi. Buyruqqa binoan keltirilgan qissago‘ylar Bahromga bir-biridan ajoyib hikoyatlar aytib berishadi. Ushbu hikoyatlarning so‘ngisida aytilgani Bahromni o‘z Diloromiga yetishishi uchun ko‘prik bo‘lib xizmat qiladi. Hikoyatda aytilishicha, bir qiz musiqa ilmida jahonda qiyosi yo‘q darajada mahoratga ega ekan. “Sab’ai sayyor”da u soz chalganida odamlar bir o‘lib, bir tirilishi keltiriladi. Bu holat Dehlaviynikidan biroz farq qiladi. Xususan, Dehlaviy yaratgan Dilorom soz chalganda hayvonlar o‘lib tirilar edi, deyilgan. Navoiy hazratlari bu yerda biroz mantiqiylikka yaqin keladilar, ya’ni san’at hayvon uchun emas, balki odamlar uchun ekanligiga ishora qiladilar. Musofir qizning doim qayg‘uli qiyofada kofuriy libos kiyib yurishing sababini so‘raydi. Qiz agar bu yerlardan ketishga va boshqa hech kimga bu haqida aytmasligiga va’da bersa, boshidan o‘tganlarini so‘zlab berishini aytadi. Musofir rozi bo‘lgach qiz boshidan o‘tganlarini aytib beradi. Musofir esa Bahromga jami olamdagи eng ulug‘ podshoh bo‘lganligi uchun bu voqealarni aytib bergenligini izhor etadi. Musofir hikoyati orqali Bahrom Diloromning daragini topadi va hushini yo‘qotadi. Bahrom qanchalik jidd-u jahd aylab Dilorom tomonga qanot chiqarib uchib borishga shay bo‘lsa-da bunga tabiblar norozilik bildirishadi. “Tog‘ning odati o‘z yerida istiqomat qilib turishdir, agar u qo‘zg‘aladigan bo‘lsa, qiyomat qo‘porilur. Bir necha g‘amni ichga yutib, sabr etib, shu yerda tur-da, olam tartibini buzma”, deyishadi ular. Shundan so‘ng ilojsiz qolgan Bahrom axiyri xat yo‘llashga majbur bo‘ladi. Bahromdek ulug‘ hukmdor sevgilisiga yo‘llagn maktubida tezroq yoniga qaytishini qattiq o‘tinib so‘raydi, agar kechiksa, Bahromning uzilgan joni uning gardanida qolishini aytib, pichoqsiz so‘ymaslikni o‘tinadi. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, Nizomiyda ham, Dehlaviyda ham hukmdor kanizakka xat yo‘llamaydi. Ularda shoh kanizaklari bilan uchrashganda, hatto qarshisida turgan qiz o‘z kanizagi ekanligini ham bilmaydi. Bahromni o‘z qilmishidan afsuslanishga majbur bo‘lgandan so‘ng o‘zlarini tanitadilar. Maqsadlari xuddiki Bahromni qilgan qilmishidan pushaymon bo‘lishiga majbur qilishdek tuyilib qolgan, vaholanki, ular hukmdorning marhamatiga qayta musharraf bo‘lganlaridan xursand bo‘lishlari kerak edi. Bir qarashda “Sab’ai sayyor”da sevishganlar uzoq ayriliqdan so‘ng visolga erishganday tuyiladi. Darhaqiqat, shunday. Bahrom Diloromni topadi, ular qovushadilar. Lekin ularning baxti uzoqqa cho‘zilmaydi: Bahromning sevgilisi Diloromni lashkar-ashyolari bilan yer yutadi – xotima yana fojiaviy. Buning sababi shuki, shoir o‘z zamonida oxiri fojia bilan tugamagan baxtiyorlikni ko‘ra olmagan¹. Bundan tashqari Navoiy Bahromning o‘limini kengroq fojiaviylik yo‘sindida va qolgan salaflaridan

¹ Мухиддинов М. Кўнгил хайратлари.– Тош.: Тамаддун. 2021. Б – 242.

ishonchliroq qilib tasvirlaganki, bu Navoiyning yana bir ulkan yutug‘i desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Akademik A. Qayumov buni quyidagicha izohlaydi: “Navoiy “Sab’ai sayyor” dostoni mazmuniga o‘zgartirishlar kiritdi, uni yaxshiroq va dilkashroq qildi. Bu dadilligi va o‘zbilarmonligi (gustohligi) uchun ustozlaridan kechirim so‘raydi. Chunki u ustozlar yo‘l qo‘ygan xatolarni tuzatmog‘i kerak edi”¹.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, shoh Bahrom va uning tarixi, badiiy obrazlarning yuzaga kelishi haqidagi ilmiy xulosalar turli-tuman va serqirradir. Shuning uchun ham Bahrom Go‘r haqidagi har bir asar badiiy adabiyot, adabiyotshunosik, tarix, dinshunoslik kabi fanlarda juda muhim o‘rin tutadi. Shu boisdan bu boradagi ilmiy izlanishlar o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Ҳасанов С. Навоийнинг етти тухфаси. Тош., Faafur Fулом. 1991.
2. Мухиддинов М. Кўнгил ҳайратлари. Тош., Тамаддун, 2021.
3. Қаюмов А. Асарлар. З-қисм. Тош., Мумтоз сўз, 2009.

¹ Қаюмов А. Асарлар.– З-қисм. Тош.: Мумтоз сўз. 2009. Б – 11-12.